O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI QORAKO‘L TUMAN HOKIMINING QARORI

Qorako‘l t., Ulug‘bek ko‘chasi 35-uy

2022 - yil 7 - noyabr 472-2-37-Q/22 Qorako'l tuman hokimligi

Qorako‘l tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi talablariga asosan Qorako‘l tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasining ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Qorako‘l tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarining oldini olish maqsadida 4R-76 Qorako‘l shahri Qorako‘l temir yo‘l bekati-Yangibozor qishlog‘i - Jig‘achi qishlog‘i suv chiqarish shahobchasi “Yomonjar” avtomobil yo‘lining 2-3 km oralig‘ining chap va o‘ng tomoniga o‘rnatilishi lozim bo‘lgan 3.27 “To‘xtash ta‘qiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Qorako‘l tumani ichki ishlar bo‘limi (J.Rasulov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (M.Raximov) va tuman yo‘llardan

foydalanish unitar korxonasi (B.Otaxonovga) tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Qorako‘l sadosi” gazetasida e‘lon qilinsin hamda tuman hokimligining Qorako‘l.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Ravshanov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Х.Я.Тоҳиров**